

(NAMUNA)

_____-SONLI KREDIT ShARTNOMASI
(chet el valyutasida)

_____ sh.

20__y. «__» _____

Keyingi matnda «Bank» deb yuritiladigan «InfinBank» AJ nomidan _____ asosida harakat qiluvchi _____, bir tomondan, va keyingi matnda «Qarz oluvchi» deb yuritiladigan _____ nomidan _____ asosida harakat qiluvchi _____, ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 744-748-moddalariga muvofiq quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

I. ShARTNOMA PREDMETI

1.1. Bank Qarz oluvchiga ushbu Shartnoma shartlarida _____ uchun chet el valyutasida _____ (_____) AQSh dollari/EVRO miqdorida kredit berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

II. KREDIT BERISH ShARTLARI

- 2.1. Kredit Qarz oluvchiga Shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan maqsadlar uchun beriladi.
- 2.2. Kredit berish shakli - kredit liniyasini ochmagan holda. Qarz oluvchi ushbu Shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan maqsadlar uchun kredit bo'yicha mablag' olishni (tanlashni) ushbu Shartnoma imzolangan sanadan boshlab ____ oy/kun davomida amalga oshirish huquqiga ega.
- 2.3. Kredit bo'yicha mablag' olish (tanlash) bank o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi.
- 2.4. Kreditdan foydalanish muddati – ushbu Shartnoma imzolangan sanadan boshlab _____ oy.
- 2.5. Asosiy qarzni to'lash bo'yicha imtiyozli davr – ushbu Shartnoma bo'yicha kredit mablag'lari ajratilgan kundan boshlab _____ oy.
- 2.6. Kredit bo'yicha asosiy qarzni qaytarish quyidagi jadvalga muvofiq amalga oshiriladi:
- 2.7. Kreditga foizlar kreditning amalda olingan (tanlangan) qismiga, birinchi olish (tanlash) sanasidan boshlab quyidagi qat'iy belgilangan foiz stavkalari bo'yicha:
- a) muddatli qarzдорlik bo'yicha yiliga ____ %;
 - b) muddati kechiktirilgan qarzдорlik bo'yicha kechiktirilgan qarzдорlikning yuzaga kelish sanasidan boshlab yiliga ____ % miqdorida hisoblanadi.
- 2.8. Foizlar summasi Qarz oluvchining kredit bo'yicha amaldagi qarzдорligidan kelib chiqqan holda, kreditdan foydalanish davrining amalda o'tgan kunlar sonini yillik bazaviy davrga (360 kunga) bo'lish asosida hisob-kitob qilinadi. Kredit uchun foizlar to'lovi 20__ yil _____ dan boshlab, oyiga bir marta, oyning _____ kunida amalga oshiriladi.
- 2.9. Kredit bo'yicha ushbu shartnomaning 2.7-bandida ko'rsatilgan foiz stavkasi Bank tashabbusi bilan tomonlar tarafidan birgalikda qo'shimcha kelishuv tuzish orqali qayta ko'rib chiqilishi mumkin.
- 2.10. Foiz stavkasi turi (kerakligi belgilansin):
- o'zgarmas ☐
 - o'zgaruvchi foiz stavkasi ☐
- 2.11. Kreditning asosiy summasi va foizlarini to'lash usuli (kerakligi belgilansin):
- differentsial ☐

- annuitet □

2.12. Qarz oluvchining mazkur shartnoma bo'yicha xorijiy valyutada kredit olishga bo'lgan tanlovi va bunday tanlovga ko'ra xorijiy valyuta kursining o'zgarishi natijasida mazkur shartnoma bo'yicha xorijiy valyutada olingan kredit bo'yicha milliy valyutadagi qarz yukining oshishi bilan bog'liq ravishda kelib chiqadigan oqibatlar Qarz oluvchining tavakkalchiligi hisoblanadi.

III. BANK O'Z ZIMMASIGA QUYIDAGI MAJBURIYATLARNI OLADI

3.1. Qarz oluvchiga ushbu Shartnomaning I, II Bo'limlarida belgilangan shartlarda chet el valyutasida kredit berish. Bank Qarz oluvchi tomonidan moliyalashtirishni ochish uchun zarur bo'lgan barcha shartlar bajarilgan vaqtdan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida Qarz oluvchiga ushbu shartnomada qayd etilgan miqdorda va shartlarda kredit berish majburiyatini oladi.

3.2. Kredit bo'yicha mablag' berilishini belgilangan maqsadiga muvofiq ushbu Shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan maqsadlar uchun Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idan amalga oshirish.

3.3. Kreditdan foydalanish va uning qaytarilishi, hisoblangan va to'langan foizlar va penya hisobini yuritish.

3.4. Bankning kredit berish majburiyati Qarz oluvchining ushbu Shartnomada moliyalashtirish ochilishiga qadar ijro etilishi nazarda tutilgan majburiyatlari bajarilgandan so'ng kuchga kiradi.

3.5. Bank Qarz oluvchiga ushbu shartnomada nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, ushbu kredit bo'yicha mablag'lar berishni to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Qarz oluvchiga kredit berish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan yozma xabarnoma yuborishi shart.

3.6. Agar kreditni qaytarish jadvali rasmiylashtirilgandan so'ng kredit bo'yicha moliyalashtirishni boshlash muddatlari yoki shartnomada ko'zda tutilgan o'zgaruvchan foiz stavkasi o'zgarishi, kredit shartnomasining shartlari tomonlar o'rtasida qayta ko'rib chiqilishi (shu jumladan, kreditning restrukturizatsiya qilinishi), Qarz oluvchi tomonidan kredit qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan kredit bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq kredit to'lovlarning miqdorlari o'zgarganda Bank kreditni qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirib, Qarz oluvchiga taqdim qiladi.

Bunda, kreditni qaytarish jadvali yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo'lgan kreditni qaytarish jadvali o'z kuchini yo'qotadi.

IV. QARZ OLUVCHI O'Z ZIMMASIGA QUYIDAGI MAJBURIYATLARNI OLADI:

4.1. Kreditdan uning tayinlangan maqsadiga muvofiq, ushbu Shartnomaning 1.1-bandidagi shartlar asosida foydalanish.

4.2. Qonun hujjatlarida va ushbu shartnomada belgilangan tartibda kredit bo'yicha taminotni rasmiylashtirish va Bankka taqdim etish.

4.3. Kreditdan foydalanish jarayonida kredit berishning asosiy tamoyillari bo'lmish: muddatlilik, qaytaruvchanlik, to'lovlilik, maqsadlilik va taminlanganlikka rioya qilish.

4.4. Ushbu Shartnoma bo'yicha Bankka to'lanishi lozim bo'lgan barcha summalarni kredit berish valyutasida va/yoki Bank tanloviga ko'ra, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'lov kunidagi kursi bo'yicha va/yoki Bank to'lov valyutasini olish imkoniga ega bo'lgan eng yaqin sanada valyuta bozorida ushbu sanada ustun bo'lgan valyutalarni sotib olish kursi bo'yicha konvertatsiya orqali birja kursi bo'yicha milliy valyutada to'lab borish. Bunday konvertatsiya bo'yicha barcha sarf-harajatlarni, shu jumladan Bankning ayirboshlash sanasidan boshlab Qarz oluvchi tomonidan Bankga to'liq summa qoplanishi sanasiga qadar valyutalar kursi o'zgarishi oqibatida yuzaga kelgan yo'qotishlarini qoplash majburiyati Qarz oluvchining zimmasida bo'ladi. Bunday holatda Bank amalga oshirilgan sarf-harajatlar summasini Qarz oluvchidan so'zsiz

tartibda undirish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu Shartnoma bo'yicha Bankka tegishli bo'lgan summalarni milliy valyutada to'lash Bankning yozma ruxsatnomasi asosidagina amalga oshiriladi.

4.5. Ushbu Shartnomaga muvofiq Bankga tegishli bo'lgan summalar Bank tomonidan olingan vaqtda to'langan hisoblanadi.

Agar Qarz oluvchi tomonidan amalga oshirilgan to'lov summasi Qarz oluvchiga ajratilgan kredit bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun etarli bo'lmasa, Qarz oluvchining qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:

- 1) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzidorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
- 2) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzidorlik;
- 3) neustoyka (jarima, penya);
- 4) Bankning qarzidorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

4.6. Kredit qaytarilishini (kredit bo'yicha asosiy qarz, kredit uchun foizlar, vositachilik haqi, penya va boshqa to'lovlarni) ushbu Shartnomaning II bo'limida ko'rsatilgan muddatlarda va shartlarda amalga oshirish.

4.7. Bankga kredit bo'yicha, shu jumladan to'lashga taqdim etilgan asosiy qarz, foizlar va penyalar bo'yicha qazdorlik to'lovi uchun Qarz oluvchining talab qilib olguncha depozit hisobvaraqlari hamda, agar mavjud bo'lsa yoki kelgusida ochilsa, boshqa hisobvaraqlari hisobidan pul mablag'larini hisobdan chiqarishga qaytarib olinmaydigan va so'zsiz huquqini taqdim etish.

4.8. Ushbu shartnoma shartlariga muvofiq kredit bo'yicha muddatli majburiyatlarni rasmiylashtirish va taqdim etish.

4.9. Ushbu Shartnoma bo'yicha barcha majburiyatlarni bajarib tugatmagunga qadar dastlab Bank roziligini olmay turib boshqa banklarda hisob raqamlarini ochmaslik, kredit mablag'larini olmaslik, kafilliklar bermaslik va garov beruvchi bo'lmaslik, o'z zimmasiga boshqa majburiyatlarni olmaslik, ushbu shartnomaning 4.20-bandi talablarini buzmaslik hamda o'z foydasini taqsimlamaslik. Qarz oluvchi ushbu shartni buzgan taqdirda Bankka har bir qoidabuzarlik turi uchun «InFinBank» AJ dan olinayotgan kredit bo'yicha qarzidorlik qoldig'ining 0,1% miqdorida jarima to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.10. Qarz oluvchining rejalashtirilayotgan tashkiliy-huquqiy yoki o'zgacha qayta tashkil etilishi haqida Bankga oldindan xabar berish.

4.11. Bankka buxgalteriya, statistika hisobotlarini va ushbu shartnoma amalda bo'lgan davrda Bank tomonidan so'rovnoma asosida olinishi lozim deb topilgan boshqa istalgan hisobotlarni taqdim etish.

4.12. Bankning oldindan so'rovnomasi bo'yicha Bank vakillariga kredit maqsadli foydalanilayotganini tekshirish imkoniyatini taminlash.

4.13. Qarz oluvchining xo'jalik faoliyatiga va uning kreditni qaytarish qobiliyatiga qandaydir tarzda salbiy tasir etishi mumkin bo'lgan xo'jalik va yuridik operatsiyalarning istalgan turlarini hamda Qarz oluvchining ustaviga zid bo'lgan operatsiyalarni amalga oshirmaslik.

4.14. Tomonlardan biri mustaqil yuridik shaxs sifatida o'z faoliyatini tugatgan yoki uning yuridik holatida o'zgartirishlar yuz bergan taqdirda, qayta tashkil etilgan (o'zgartirishlar kiritilgan) tomonning huquqiy vorisi zimmasiga ushbu Shartnoma bo'yicha barcha majburiyatlarni bajarish yuklanadi. Qarz oluvchi tugatilishida u kredit va foizlar bo'yicha qarzidorlikni darhol to'lab berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.15. Qarz oluvchining moliya-xo'jalik faoliyatini hamda ushbu Shartnomaning V Bo'limida nazarda tutilgan kredit bo'yicha taqdim etilgan garov taminotning holatini yilning har choragida monitoring qilish maqsadida, Bankka qonun hujjatlarida belgilangan shaklda buxgalteriya, statistika va istalgan boshqa hisobotlarni, malumlarni, shu jumladan Bank tomonidan belgilangan shaklda lizing portfelining ahvoli to'g'risidagi malumlarni, shuningdek, ushbu Shartnoma amalda bo'lgan davrda Bank tomonidan so'rovnoma asosida olinishi lozim deb topilgan boshqa tegishli hujjatlarni yilning har choragida taqdim etish. Bundan tashqari, Bankning so'rovnomasi bo'yicha ishlab chiqarish,

omborxona, mamuriy binolarga, ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan uskunalar va garov taminoti saqlanayotgan joylarga, shuningdek, garov taminotiga, shu jumladan ko'zdan kechirish uchun uchinchi shaxslarning huzuriga to'siqsiz tashrif buyurish uchun imkoniyat yaratish.

4.16. Ixtiyoriy tugatish yoki bankrotlik tartibi boshlanishi kutilayotgan sanadan 2 (ikki) oy oldin bu haqda Bankni xabardor qilish.

4.17. Ixtiyoriy tugatish jarayoni boshlanishidan oldin ushbu shartnoma bo'yicha Bank oldidagi barcha qarzdorlikni to'lash.

4.18. Qarz oluvchi kredit bo'yicha qarzdorlikni to'liq qoplagunga qadar Bank tomonidan belgilangan muddatda qarzga va Qarz oluvchiga oid har qanday malumot va hujjatlarni Bankka taqdim etish majburiyatini oladi. Malumotlar va hujjatlar ushbu bandda belgilangan muddatda taqdim etilmagan taqdirda, Qarz oluvchi bankka kechiktirilgan har bir kun uchun ushbu shartnoma bo'yicha asosiy qarz qoldig'ining 0,01 foizi miqdorida penya to'laydi.

4.19. Qarz oluvchi quyidagilarga majbur:

a) kredit mablag'laridan moliyaviy, bank, mamuriy meyor va amaliyotga muvofiq samarali foydalanish;

b) o'z faoliyatini amalga oshirish va ushbu shartnoma shartlariga rioya qilish uchun barcha zarur ruxsatnomalar va litsenziyalarni o'z vaqtida olish va muddatini uzaytirish.

4.20. Ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida Qarz oluvchi Bankning oldindan roziligisiz quyidagilarni bajarmasligi lozim:

a) Shartlari bo'yicha Qarz oluvchining ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlariga nisbatan ustuvor talab qilish huquqiga ega bo'lishi mumkin bo'lgan uchinchi shaxslar kreditlarini jalb qilish;

b) bajarilishi ushbu shartnoma shartlariga zid kelishi yoki Qarz oluvchining ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga tahdid solishi mumkin bo'lgan har qanday shartnomalarni uchinchi shaxslar bilan tuzish;

v) Qarz oluvchi faoliyatining yoki aktivlarining barcha yoki katta qismi uchinchi shaxs tomonidan boshqarilishi mumkin bo'lgan shartnomalar tuzish;

g) faoliyatini qayta tashkil etish yoki tugatishni amalga oshirish;

d) kredit mablag'laridan ushbu shartnomada nazarda tutilmagan maqsadlarda foydalanish;

j) o'z kapitalini kamaytirish yoki o'z aksiyalarini sotib olish.

z) karz oluvchi Bankning oldindan yozma ruxsatisiz o'z tasis hujjatlariga, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, tasischilar/aktsiyadorlar tarkibi, va ularning egalik ulushlari taqsimoti o'zgarishi kabi muhim o'zgartirishlar kiritish va shunga o'xshash har qanday o'zgartirishlarga yo'l qo'yish.

i) dividendlar to'lash yoki foydani har qanday shaklda taqsimlash;

k) affillangan shaxslar bilan bitimlarni bozorga xos bo'lmagan shartlarda tuzish;

l) o'z mol-mulkini tekinga berish yoxud o'z aktivlarini muqobil ekvivalent olmasdan boshqa shaxsga berish;

m) debitor qarzdani yoki uchinchi shaxslarga bo'lgan talablardan voz kechishga;

n) yuridik shaklidan qati nazar, Qarz oluvchining sof aktivlarini kamayishga, kapitalini pasayishga, uning moliyaviy holatini yomonlashishiga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday boshqa harakatlarni sodir etish.

Qarz oluvchining ushbu band qoidalarini buzishi shartnomaning jiddiy buzilishi hisoblanadi va Bankka kreditni muddatidan oldin qaytarishni talab qilish huquqini beradi.

V. TAMINOT

5.1. Kredit bo'yicha taminot sifatida:

5.1.1. _____

5.1.2. _____ qabul qilinadi.

5.2. Bank bilan kelishilgan holda Bankni qanoatlantiradigan boshqa shakldagi likvidli taminot qabul qilinishi mumkin.

5.3. Taminotning umumiy qiymati kredit qoldig'ining 125% (bankka aloqador shaxslar uchun 130%) dan past bo'lishi mumkin emas.

Agar:

- Qarz oluvchi kredit ajratilganidan so'ng Bankka aloqador shaxsga aylansa va
- Kredit bo'yicha mavjud taminot kredit qoldig'ining 130 foizidan kamini tashkil etsa,

Qarz oluvchi Bankni qanoatlantiradigan qo'shimcha taminotni taqdim etishi lozim. Bu qo'shimcha taminot kredit bo'yicha boshqa (mavjud) taminot bilan birgalikda kredit qoldig'ining kamida 130 foizini taminlashi kerak.

Qo'shimcha taminot Qarz oluvchi tomonidan Bank tegishli talabni qo'ygan kundan boshlab 30 (o'ttiz) bank ish kuni ichida taqdim etilishi shart.

5.4. Kredit mablag'lari hisobiga sotib olinayotgan mol-mulk garov sifatida taqdim etilishi holatida, Qarz oluvchi kredit mablag'lari hisobiga sotib olinayotgan mol-mulk yuzasidan egalik huquqini o'ziga rasmiylashtirib olgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida, kredit mablag'lari hisobiga sotib olinayotgan mol-mulkni Bank bilan kelishilgan va bozor qiymatining ____% ko'p bo'lmagan garov qiymati bo'yicha garovga qo'yish shartnomasini tegishli tartibda rasmiylashtirib Bankka taqdim etish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Ushbu shart buzilgan taqdirda Bank Qarz oluvchidan kredit bo'yicha qarzdorlik qoldig'ining 0,01% miqdorida penya undirish huquqiga ega bo'ladi va uning miqdori ushbu qoidabuzarlik yuzaga kelgan kundan boshlab u to'liq bartaraf etilishiga qadar majburiyatlarni buzish har bir kuniga hisoblanadi.

5.5. Qarz oluvchi taminot yomonlashgan va uning qiymati kamaygan taqdirda yoki taqdim etilgan taminot Bank talablariga javob bermay qolgan boshqa holatlarda Bankning talabnomasi qo'yilgan vaqtdan boshlab 30 (o'ttiz) bank kuni ichida Bank talablariga muvofiq bo'lgan taminotni taqdim etish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

5.6. Garov taminotini almashtirish bunga Bankning roziligi mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchi tashabbusi bilan garov taminoti almashtirilgan taqdirda, Qarz oluvchi garov taminotini almashtirish uchun to'lanadigan vositachilik haqini garov taminotini almashtirish paytida amalda bo'lgan miqdorda Bankka to'lash majburiyatini oladi.

VI. BANK HUQUQLARI

6.1. Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnomaning shartlari buzilganda Bank asosiy qarz, hisoblangan foizlar va kredit bo'yicha boshqa to'lovlar bo'yicha qarzdorlik hisobiga Qarz oluvchining istalgan hisobvaraqlari hisobidan mablag'larni aktseptsiz tartibda hisobdan chiqarish huquqiga ega.

6.2. Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnomaning shartlari buzilganda Bank so'zsiz va qaytarib olinmaydigan tartibda kredit bo'yicha mablag' olishni (tanlashni) vaqtinchalik to'xtatish va/yoki keyinchalik kredit berishni rad etish huquqiga ega bo'ladi.

6.3. Bank ushbu Shartnoma bo'yicha o'z huquqlaridan foydalanish natijasida Qarz oluvchidan olinishi lozim bo'lgan valyutadan boshqa valyuta olgan taqdirda, Bank o'zi ixtiyoriga ko'ra ushbu valyutani Bank to'lov valyutasini olish imkoniga ega bo'lgan eng yaqin sanada valyuta bozorida ushbu sanada ustun bo'lgan valyutalarni sotib olish kursi bo'yicha to'lov valyutasiga konvertatsiya qilishi mumkin. Bunday ayirboshlash bo'yicha barcha sarf-harajatlarni, shu jumladan Bankning ayirboshlash sanasidan boshlab Qarz oluvchi tomonidan Bankka to'liq summa qoplanishi sanasiga qadar valyutalar kursi o'zgarishi oqibatida yuzaga kelgan yo'qotishlarini qoplash majburiyati Qarz oluvchining zimmasida bo'ladi. Bunday holatda Bank amalga oshirilgan sarf-harajatlar summasini Qarz oluvchidan so'zsiz tartibda undirish huquqiga ega bo'ladi.

6.4. Ushbu Kredit Shartnomasiga binoan amalda saqlanishi lozim bo'lgan istalgan sug'urta shartnomasi Qarz oluvchi tomonidan sug'urta mukofotlari to'lanmaganligi oqibatida istalgan vaqtda

va istalgan sababga ko'ra amal kuchiga ega bo'lmashligi ehtimolini nazarda tutgan holda, Bank bundan keyin yoki bu holat davom etayotgan istalgan vaqtda bunday mukofotni Qarz oluvchi o'rniga o'z nomidan to'lash va ehtimoliy zararni Bank tomonidan maqsadga muvofiq yoki zarur deb topilgan usulda imkon qadar kamaytirish maqsadida barcha shu kabi choralarni ko'rish huquqiga ega bo'lishi lozim (lekin bunday majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi). Bunda Bank to'langan summani Qarz oluvchidan so'zsiz tartibda undirish huquqiga ega.

6.5. Bank kreditdan maqsadsiz foydalanilgani holatini aniqlagan taqdirda kreditni muddatidan ilgari undirish huquqiga ega bo'ladi.

6.6. Bank ushbu Shartnomani tuzish, Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan taminot va shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishi yuzasidan malumotlarni Kredit axboroti milliy institutiga, «Kredit–axborot tahliliy markazi» Kredit byurosi» MChJga va boshqa kredit byurolariga, DUK "Garov reestri"ga taqdim etish va ulardan olish huquqiga ega.

6.7. Ushbu Shartnomaning 4 va 5 Bo'limida ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarish muddatlari Qarz oluvchi tomonidan buzilgan taqdirda, Bank Qarz oluvchidan belgilangan bajarish muddatidan keyingi kundan boshlab majburiyat amalda bajarilgan kungacha har bir kechiktirilgan kun uchun kredit bo'yicha qarz qoldig'ining 0,01 foizi miqdorida penya undirish huquqiga ega.

6.8. Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar buzilgan taqdirda (ushbu Shartnomaning boshqa qoidalari bilan javobgarligi aniq tartibga solingan majburiyatlar bundan mustasno), Bank har bir qoidabuzarlik holati uchun Qarz oluvchidan qarz qoldig'ining 0,1% miqdorida jarima undirishga haqli.

VII. QARZ OLUVCHINING HUQUQLARI

7.1. Ushbu Shartnomada aks ettirilgan shartlarda va summalarda kredit olish.

7.2. Kredit bo'yicha asosiy qarz summasini, muddatidan oldin qaytarish sanasi holatiga kreditdan amalda foydalanish davri uchun hisoblanib to'lanmagan foizlarni hamda kredit bo'yicha boshqa to'lovlarni hisobga olgan holda, berilgan kredit valyutasida va/yoki amaldagi Qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'lov kunidagi kursi bo'yicha va/yoki Bank to'lov (kredit) valyutasini olish imkoniga ega bo'lgan eng yaqin sanada valyuta bozorida ushbu sanada ustun bo'lgan valyutalarni sotib olish kursi bo'yicha birja kursi asosida to'lov (kredit) valyutasiga ayirboshlash orqali milliy valyutada muddatidan ilgari qaytarish. Bunday ayirboshlash bo'yicha barcha sarf-harajatlarni, shu jumladan Bankning ayirboshlash sanasidan boshlab Qarz oluvchi tomonidan Bankga to'liq summa qoplanishi sanasiga qadar valyutalar kursi o'zgarishi oqibatida yuzaga kelgan yo'qotishlarini qoplash majburiyati Qarz oluvchining zimmasida bo'ladi. Bunday holatda Bank amalga oshirilgan sarf-harajatlar summasini hamda kredit bo'yicha boshqa to'lovlarni Qarz oluvchidan so'zsiz tartibda undirish huquqiga ega bo'ladi.

7.3. Bank bilan kelishilgan holda kredit bo'yicha taminot tarkibidan mol-mulkni chiqarish.

7.4. Ushbu shartnoma tuzilgandan so'ng va Qarz oluvchi ushbu shartnoma bo'yicha kredit olishiga qadar kredit olishdan bepul asosda voz kechish.

7.5. Kreditni muddatidan oldin, buning uchun hech qanday jarimalarni to'lamasdan, istalgan vaqtda to'liq qaytarish.

7.6. Bankning aybi bilan kredit mablag'larini berish majburiyati bajarilmaganligi yoki o'z vaqtida bajarilmaganligi uchun Bankdan 1 BHM miqdorida jarima undirish.

VIII. KREDITNI MUDDATIDAN OLDIN UNDIRUVI

8.1. Bank Qarz oluvchidan kredit summasini va boshqa tegishli to'lovlarni muddatidan oldin darhol to'lab berilishini talab qilish hamda kreditni muddatidan oldin undirish to'g'risidagi tegishli davotablari bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lishiga quyidagi holatlardan istalgani sodir bo'lgani va davom etayotgani asos hisoblanadi, jumladan:

a) Qarz oluvchi kredit bo'yicha o'z qarzlarini qaytarish qobiliyatini yo'qotishi yoki ularni to'lash muddatida qaytarmayotganligi va bu holat to'lash muddati buzilgan vaqtdan boshlab 60 kalendar kuni davom etishi;

b) Qarz oluvchi ushbu Kredit Shartnomasi bo'yicha va/yoki istalgan boshqa kelishuv bo'yicha, shu jumladan, garov, kafillik shartnomasi va boshqa bitimlar (shu jumladan, to'lov jadvali bo'yicha to'lovni amalga oshirish) bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmayotganligi va bu holat Bank Qarz oluvchiga bajarmayotganlik holati haqida xabar bergandan so'ng 5 (besh) ish kuni davom etishi;

v) Qarz oluvchining (Kreditdan tashqari) qandaydir qarzdorligi yuzasidan yoki Qarz oluvchining belgilangan muddatda to'lanmagan qandaydir qarzdorligi bo'lgan shartnomaga asosan belgilangan majburiyatlar bajarilmayotganligi;

g) kredit bo'yicha taminot yoki taminotning biron bir qismi ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarga nisbatan o'zining yuridik kuchini yo'qotishi;

d) istalgan davlat organlari Qarz oluvchiga tegishli mol-mulkning yoki boshqa aktivlarning barchasini yoki istalgan qismini, yohud uning ustav kapitalini musodara qilayotganligi, milliyalashtirayotganligi yoki boshqa usullarda ekspropriatsiya qilayotganligi, yoki Qarz oluvchining mol-mulkini yoki boshqa aktivlarini, yoki uning biznesini, operatsiyalari yoki ustav kapitalini saqlash yoki nazorat qilish uchun qabul qilayotganligi, yohud Qarz oluvchini tarqatib yuborish yoki faoliyatini tugatish uchun istalgan harakatni, yoki Qarz oluvchi yohud uning xodimlari biznes yoki operatsiyalarning barchasini yoki ahamiyatli qismini davom ettirishiga to'sqinlik qiladigan istalgan harakatni amalga oshirganligi;

e) Qarz oluvchi yoki biron bir tarzda Qarz oluvchiga aloqador bo'lgan uchinchi shaxslarga nisbatan davo-talablari yoki ish yurituvchi qo'zg'atilishi va ularning natijasida Qarz oluvchining istalgan mol-mulki uning kreditorlari o'rtasida taqsimlanishi ehtimoli mavjudligi;

yo) 4 va 5 Bo'limlarda ko'rsatilgan majburiyatlar ushbu Bo'limlarda ko'rsatilgan muddatlarda bajarilmaganligi;

j) Qarz oluvchining mol-mulkiga undiruv qaratilishi yoki band solinishi;

z) ushbu shartnomaning 2.10.-bandida ko'rsatilgan masala bo'yicha kelishuvga erishilmagan va qo'shimcha kelishuv tuzilmagan hollarda.

i) Bankning fikriga ko'ra, Qarz oluvchining bank oldidagi to'lov majburiyatlarini bajarishiga jiddiy tasir ko'rsatishi mumkin bo'lgan voqealar sodir bo'lganligi;

k) Bankni oldindan yozma ravishda xabardor qilmasdan, Qarz oluvchining kapitalini kamaytirish, qayta tashkil etish, qo'shilish, mulkni topshirish, bo'linish yoki tugatish amalga oshirilganda;

l) Bank va/yoki auditorlik kompaniyalarining fikriga ko'ra, Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashganda;

m) Qarz oluvchining ushbu shartnoma bo'yicha har qanday majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga tasir qiluvchi qonunchilik yoki tartibga soluvchi qoidalar kiritilganda;

n) Qarz oluvchining ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarini to'g'ri bajarishi uchun zarur bo'lgan har qanday ruxsatnomalar, litsenziyalar, ro'yxatga olishlar, sertifikatlar va boshqalar o'z kuchini yuqotgan bo'lsa;

o) Qarz oluvchi o'z to'lov majburiyatlarini bajara olmagan yoki unga nisbatan bankrotlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilgan yoki Qarz oluvchi bankrot deb elon qilinganda;

p) Qarz oluvchi ushbu shartnoma bo'yicha boshqa har qanday majburiyatlarni bajarmaganda;

r) Har qanday vakolatli organ Qarz oluvchini tugatish yoki uning faoliyatini to'xtatib turish yoki shunga o'xshash Qarz oluvchiga tasir ko'rsatadigan boshqa harakatlarni amalga oshirgan bo'lsa.

s) Ushbu shartnomaning 13.1-bandida ko'rsatilgan Qarz oluvchining tasdiqlari yolg'on bo'lgan hollarda.

IX. QO'LLANADIGAN QONUN HUJJATLARI VA

NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

9.1. Ushbu Shartnoma qoidalarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan meyorlar bilan tartibga solinadi.

9.2. Mazkur Shartnoma yoki u munosabati bilan kelib chiqishi mumkin bo'lgan barcha nizolarni tomonlar muzokaralar yo'li bilan hal qilishga harakat qiladilar. Agar tomonlar kelishuvga erishmasa, ular o'rtasidagi nizo:

yo Bank joylashgan joydagi sudda (ushbu Shartnomaning "Tomonlarning yuridik manzili" bo'limida ko'rsatilgan manzil bo'yicha);

yoki O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari huzuridagi hakamlar sudida;

yoki O'zbekiston Hakamlar sudlari assotsiatsiyasi va uning hududiy filiallari huzuridagi hakamlar sudida hal etiladi.

9.3. Ushbu Shartnomaga bog'liq yuzaga keladigan istalgan sud jarayonida, ushbu shartnomaga muvofiq Bankga tegishli bo'lgan istalgan summa bo'yicha Bank hujjatlari bunday summa Bankga tegishli ekanligi va unga to'lanishi lozimligining dastlabki dalil-isboti hisoblanishi kerak.

9.4. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, Qarz oluvchi notariusning ijro xati asosida Bank tomonidan kredit bo'yicha qarzдорlikni undirish imkoniyatiga rozi bo'ladi. Ushbu shartnoma va u bo'yicha majburiyatlar tomonlar tomonidan notarius ijro xatini yozish uchun yetarli asos sifatida e'tirof etiladi.

X. FORS-MAJOR HOLATLARI (FMH)

10.1. Tomonlardan hech biri ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun, bunday holat Shartnomani tuzishdan so'ng yuzaga kelgan va oqilona choralar yordamida oldini olish imkonsiz bo'lgan engib bo'lmaydigan kuch holati (suv toshqini, yong'in, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar) oqibatida yuz bergan bo'lsa, javobgar hisoblanmaydi.

10.2. FMH tasiriga tushgan tomonlar darhol boshqa tomonga bu holat haqida xabardor qilishlari shart. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlari engib bo'lmaydigan kuch holatlari (FMH) amalda bo'lgan vaqtga mutanosib ravishda boshqa muddatga ko'chiriladi.

XI. ALOHIDA SHARTLAR

11.1. _____.

11.2. _____.

XII. BOSHAQA SHARTLAR

12.1. Tomonlar ushbu Shartnoma asosida mazkur Shartnoma qat'iy maxfiylikni taminlash va o'zaro kelishmasdan uni uchinchi shaxsga oshkor qilmaslik majburiyatini o'z zimmasiga oladilar, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

12.2. Ushbu kredit Shartnomasi imzolangan vaqtdan boshlab to Qarz oluvchi tomonidan Bank oldidagi barcha majburiyatlar to'liq bajarilishiga qadar amal qiladi.

12.3. Ushbu Shartnoma tomonlarning har birida bittadan saqlanadigan jami 2 nusxada tuzilgan bo'lib, ularning har biri bir xil yuridik kuchga ega.

12.4. Shartnoma shartlarini o'zgartirish tomonlarning qo'shimcha yozma kelishuvi bo'yicha amalga oshiriladi va bu kelishuv ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

12.5. Ushbu bilan Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha uni tuzish shartlari, taqdim etilgan taminot va Qarz oluvchi tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilishi xususidagi malumotlar Kredit axboroti milliy institutiga, «Kredit–axborot tahliliy markazi» Kredit byurosi» MChJ va boshqa kredit

byurolariga taqdim etilishi va olinishiga o'z roziligi beradi hamda olinayotgan kredit bo'yicha taminot sifatida taqdim etilayotgan mol-mulk to'g'risidagi malumotlar O'zR «Garov reestri to'g'risida»gi Qonunining 10-moddasiga asosan reestrda qayd etilishiga o'z roziligini beradi.

12.6. Nizolar yuzaga kelgan taqdirda Qarz oluvchining shaxsiy hisobvaraqlaridagi bank yozuvlari Qarz oluvchining majburiyatlari amalga oshirilishi va ular miqdorining ustuvor dalil-isboti hisoblanadi.

XIII. QARZ OLUVCHINING TASDIQLARI

13.1. Ushbu bilan Qarz oluvchi quyidagilarni tasdiqlaydi:

a) Qarz oluvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq belgilangan tartibda tashkil etilgan va ro'yxatdan o'tgan, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun barcha zarur maxsus ruxsatnomalarga (litsenziyalarga) ega bo'lgan yuridik shaxsdir;

b) Qarz oluvchi o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka va boshqa aktivlariga egalik huquqiga yoki boshqa ashyoviy huquqqa ega;

v) Mazkur shartnomani imzolagan shaxslar Qarz oluvchining tasis hujjatlariga va boshqa hujjatlariga muvofiq ushbu shartnomani imzolashga tegishli vakolatga ega bo'lib, amaldagi qonunchilikka muvofiq shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar Qarz oluvchi uchun haqiqiy va qo'llanilishi mumkindir;

g) ushbu shartnomaning imzolanishi, uning bajarilishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, Qarz oluvchining normativ hujjatlariga, shuningdek, Qarz oluvchi ishtirok etadigan uchinchi shaxslar bilan tuzilgan boshqa shartnomalarga zid emas;

d) Qarz oluvchining mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlariga qonuniy tus berish uchun zarur bo'lgan barcha kerakli ruxsatnomalar, litsenziyalar, vakolatlar, istisnolar, ro'yxatga olishlar, notarial tasdiqlashlar va boshqa harakatlar olingan va kuchga kirgan;

e) Qarz oluvchiga nisbatan mamuriy yoki sud harakatlari qo'zg'atilmagan va Qarz oluvchining faoliyatiga yoki uning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga jiddiy tasir ko'rsatishi mumkin bo'lgan uchinchi shaxslar oldidagi bajarilmagan majburiyatlari mavjud emas.

XIV. XABAR BERISH, TAYINLANGAN VAKILLAR VA O'ZGARTIRISHLAR

14.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha talab qilinadigan yoki ruxsat etilgan barcha xabarnomalar yoki so'rovnoma yozma shaklda taqdim etiladi, shartnomada yoki O'zR qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno. Bu kabi xabarnoma yoki so'rovnoma yo'llanayotgan tomonga shaxsan topshirilganda, pochta, telegraf, teleks yoki faksimile aloqasi bo'yicha uning ushbu shartnomada ko'rsatilgan istalgan manziliga yoki tomon so'rovnoma yoki xabarnoma taqdim etayotgan yoki yo'llayotgan tomonga yozma shaklda ko'rsatgan istalgan boshqa manzilga etkazilganda tegishli topshirilgan yoki berilgan hisoblanadi.

ShULARNING DALILI SIFATIDA VA YuQORIDAGILARNI TASDIQLASH MAQSADIDA, ushbu shartnomaning tomonlari o'zlarining tegishli vakolatlangan vakillari orqali harakat qilgan holda, o'zbek tilida, har biri asl hisoblanadigan jami ikki (2) nusxada tuzilgan ushbu shartnomaga _____ shahrida, yuqorida ko'rsatilgan yil va kunda imzo chekishdi.

XV. TOMONLARNING YurIDIK MANZILI

«Bank»:

«Qarz oluvchi»:

«InfinBank» AJ
